

21. Mamarasulov B. Bekmurod baxshi. //Ilg‘or chorvador(hozirgi “Nurnoma”). 1974, 28 sentyabr
22. Qodirov R. Baxshilar sarvari.T.; “O‘zbekiston”. 2018. 320 b
- G‘ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. T.; “Fan”.1971. 432 b
23. Qodirov R. Po‘lkan shoir ibrati. T.; 2015. 244 b
24. Bo‘tako‘z. Doston. (Aytuvchi: A.Berdixol o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi: R.Qodirov). T.; “Yozuvchi”, 1998. 96 b
25. Qodirov R. Yomg‘ir gullari. T.; 2019. 332 b
26. Qodirov R. O‘zlari kim?. T.; 1995. 64 b
27. Kobulova H. Erkin A’zam nasrida xarakter va maishiy hayot tasviri. T.: Общество и инновации, 2021. 2-4/S, 475-480
28. Zarafshon ohanglari. (To‘plab nashrga tayyorlovchi: R.Qodirov). T.; “Yozuvchi”, 1998. 88 b

## **LEKSIK QATLAMNING QAHRAMON RUHIY OLAMINI NAMOYON ETISHDAGI O’RNI**

**Kobulova Nodira Bahodirovna  
O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи dotsenti, f.f.f.d., PhD.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yozuvchining til imkoniyatlaridan foydalanib qahramon xarakterini yoritishga yondashuvi, badiiy asarlarda arxaizm, neologizm, sheva, kasb va hunarga oid so‘zlardan foydalanishning badiiy qiymati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** obraz, xarakter, estetik va aniq maqsad, mazmun nozikligi, leksik qatlama, arxaik so‘zlar, neologizmlar, umumiylig, individuallik, varvarizm, allegoriya, sirkulyatsion mohiyat.

## **РОЛЬ ЛЕКСИЧЕСКОГО СЛОЯ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ДУХОВНОГО МИРА ГЕРОЯ**

**Аннотация:** В данной статье с использованием языковых возможностей, которыми обладают способности писателя, а также с использованием архаизмов, неологизмов, варваризмов, диалектных и связанных с профессией и деятельностью слов используются в произведениях искусства для определенных эстетических целей.

**Ключевые слова:** образ, характер, эстетическая и целевая задача, тонкость содержания, лексический слой, архаические слова, неологизмы, обобщение, индивидуализация, варварство, аллегория, циркулирующая сущность.

## **THE PLACE OF LEXICAL LAYERS IN THE LANGUAGE OF THE WORK**

**Annotation:** In this article using language opportunities which the writer's ability and using archaism, neologism, barbarism, dialectal and related to profession and activity words been used in works of art for certain aesthetic purposes.

**Key words:** image, character, aesthetic and purposeful objective, content subtlety, lexical layer, archaic words, neologisms, generalization, individualizing, barbarism, allegory, circulating essence.

Yozuvchi badiiy asarda muayyan g'oyaviy-estetik maqsadlarga ko'ra arxaizmlar, neologizmlar, varvarizmlar, shevaga, kasb-korga xos so'zlar, vulgarizmlar, sinonim, omonim, antonimlardan ham keng foydalanadi.

Bulardan arxaizmlar, neologizmlar, sheva va kasb-kor so'zlar, varvarizm va vulgarizmlar so'zlarning to'g'ri ma'nolarini anglatса, sinonim, omonim, antonimlar so'zlarning ma'no jihatdan muhim farqlarini, nozik ma'nolarini ifoda etib keladi. Ijodi xalqona ohanglarga yaqin yozuvchilar asarlarda ushbu leksik qatlamlarning tufra xil ko'rinishlarini uchratish mumkin.

Arxaizmlar, asosan, tarixiy asarlarda ko'proq ishlatiladi. Erkin A'zamning asarlarida arxaik so'zlar unchalik ko'p uchramasada, qahramon xarakter xususiyatlarini, xususan, individual belgilarini olib berish maqsadida onda-sonda ishlatiladi. "Jannat o'zi qaydadir" asarida Xonim tildan aytilgandek, "bir yuzu oltmis sakkiz qo'qonga tushdi" kabi. Shuningdek, neologizmlarning ishlatilishi ham unchalik faol emas. Neologizmlar, ayniqsa, fan-texnika bilan shug'ullanuvchi kishilar hayotiga bag'ishlangan realistik, shuningdek, ilmiy-fantastik asarlarda ko'proq uchrashini hisobga oladigan bo'lsak, bu holning izohi ma'lum.

Erkin A'zam asarlarida alohida e'tibor qaratadigan leksik qatlamlardan biri shevaga xos so'zlardir. Yozuvchi tasvirlayotgan vogelikning hayotiy chiqishini ko'rsatish hamda xarakter nutqini umumlashtirish va individuallashtirish maqsadida ko'pgina qahramonlarini ular tug'ilib o'sgan yurt shevasida gapirtiradi. Bu asarlarda Toshkent, Sirdaryo, Xo'jand, Surxon, Samarqand shevalariga xos so'z va iboralarni uchratamiz. Shu jihatdan "Bayramdan boshqa kunlar" asaridagi Muftilla, ya'ni Misha tog'a o'zining beo'xshov qiliqlari, almisoqdan qolgan qarashlari bilan kitobxonning yodida saqlanib qoladi.

"Muftilla to'rvasini tag'in titkilab, dag'al qog'ozga o'raglan allanima chiqardi:

- Manov – tandirkabob! Jeysizlar.

Safura chapak chalib yubordi:

- Vuy, prelest, Misha tog'a!

Sahovatli "tog'a" yonlarini kavlab, sopi yaltiroq birvakay ikkita pichoq oldi.

- Jiyandoing o'zi ko'rinnmaydimi? Biz unga manovlarni olib kelib edik. Ko'pam ul boshqa o'yinlarni o'ynaybermay, buniyam o'rgansin. Pichoqbozlik – otabobomizdan qog'an o'yin." [Erkin A'zam, 2002:175]

Muftillaning ushbu gap-so'zları unga yuqoriqda berilgan xarakteristikani to'la oqlaydi: didsiz kiyingan, irkitroq bir kimsa. Uning tashqi ko'rinishi ichki olamiga mos kelishini o'zining nutqi ham tasdiqlaydi.

Bugungi kunlarga go‘yo o‘tmish asrlardan kelib qolgan befarosat kimsadek.

Erkin A’zam asarlarida eng ko‘p ishlatiladigan zahiralardan biri varvarizmlardir. Bu hodisani yozuvchining katta-kichik asarlarining ko‘philigida ko‘rish mumkin. “Bayramdan boshqa kunlar”da Sapura, Basira, Bargida, “Jannat o‘zi qaydadir”da Komila-Katya, Luiza, Xonim, “Guli-guli”da Ma’mura gajak, Natal’ya Dmitreevna- Natasha Rostova, “Stupka”da Marina yanga, Lena, “Shovqin” romanidagi bir qator personajlar nutqida chet tili so‘zlari, iboralari, gaplarini uchratib qolamiz.

Asar tilidagi leksik zahiralar, jumladan, varvarizm ham muallif yo roviy tildan obrazga beriladigan xarakteristikalarini to‘ldiradi, qahramonning xarakter belgilarini to‘la tasavvur etishga imkon yaratadi. “Bayramdan boshqa kunlar”dagi tantiq o‘sgan Basira zamonaviy oyimqizlardan. Agar bu obrazni o‘tgan asrning oltmishinchi yillarigacha bo‘lgan davr voqeligi fonida tasvirlaganda sun’iylik vujudga kelgan bo‘lardi. Chunki, 60-yillargacha bo‘lgan tarbiya tizimi, muhit, sharoit bunday xarakterlarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasdi. Basira – aynan 70-80-yillar davri voqeligi mahsuli. U o‘sib-ungan muhitdan andoza olgan holda bema’ni hayot kechiradi, yurish-turishi betayin, huda-behudaga chet so‘zlardan ishlataveradi:

“-Ну все! – деди у кутимаганда, опаси билан поччасини ко‘ргач, “halinchagi”да тебранишдан то‘хтаб. – Больше сюда не звони! Чтобы духа твоего не было здесь! Кретин! – Басира шарақлатиб трубкани жойига қўйиди-дикиллаб ўрнидан турди, уларга бир ёвқарашиб қилдию индамай емакхона тарафга ўтиб кетди.” [1; 214]

Safura esa shaxsiy hayoti girdoblariga cho‘kayotgan obraz sifatida taassurot qoldiradi. U hayotdan kuygan, sho‘rpeshona, hattoki, onalik baxtini ham boy bergen, yakkayu yagona farzandi bilan ham yashirinchha ko‘rishib yuradi. U xarakteran qayg‘usini bildirmaslikka, boshqalarning ko‘ziga shodon bo‘lib ko‘rinishga harakat qiladi. Xursandchilik bilan musibatini yengmoqchi bo‘ladi. Ana shu fe’li gap-so‘zlarida ham aks etadi. Shuning uchun doim ikki gapining birida chet til so‘zlarini ishlatib, o‘ziga alohida qurama “til” yaratib olgan. Uning farzandididan boshqa kim bilan suhbatini kuzatmaylik, albatta, ana shu “qurama” tildan foydalanadi. Bu “qurama” til go‘yoki uni fojealardan ihota qilib turadigandek.

“Chi gap, genatsvali”, “bonjur”, “ladno”, “chao, bolakay”, “Ya – dura, vsyo”, “po sekretu”, “golubchik”, “po sekretu”, “vot v chyom sut”, “prosta krasotka”, “tak chto, podumay” kabi so‘z va iboralar, “Xello-o! BB larga (Bakir bilan Bargida demoqchi) salyut! – deb qiyqiradi u telefondayoq: ismlarini to‘liq aytish ham unga malol kelsa kerak yoki oliftagarchilikamikan? So‘ng betakallufona so‘zlashuvga o‘tadi: - Qalaysan, bolakay? Shik? Ya rada, Jonginang uydami? Chaqir-chi... Bargi-isha! Znaesh, ya vchera... kimni ko‘rdim, top-chi!” [1; 232] hamda ushbu gaplar qahramon xarakterining beqarorligidan, o‘zining asl qiyofasini yaltiroq so‘zlar ortiga yashirayotganidan darak beradi. Ruscha, fransuzcha, tojikcha, inglizcha so‘z-iboralardan iborat, faqat Safuragagina tegishli bu leksik ifoda uning o‘z tilini ham tuzukroq bilmasligini ko‘rsatadi. Shubhasiz, o‘rinli-o‘rinsiz

ishlatilgan bu so‘z, ibora, gaplar – shunchaki o‘z yo‘liga aytilgan obrazning almoysi-jalmoysi aljiramalaridek bo‘lib tuyulsada, ular ortiga o‘ziga xos iroda yo‘nalishiga ega inson bor, uning ma’naviy olami bor, ichki dunyosi bor, qolaversa, qismati bor. Shunday ekan, badiiy asarlardagi varvarizmlarga alohida e’tibor qaratish lozimligini taqozo etadi.

“Stupka” nafaqat Erkin A’zamning, balki o‘zbek hikoyachiligining keyingi yillardagi eng yaxshi namunalaridan biridir. Taqdir taqozosi bilan O‘zbekistonda yashab qolgan ikki rus ayoli o‘zaro bordi-keldi qilishadi, yoshliklarini, tug‘ilib o‘sigan yurtlarini eslashadi. Hikoyada bor-yo‘g‘i bitta ruscha so‘z xususida gap ketadi. Ikkovi ham hovonchaning ruscha qanday atalishini eslashomlaydi. Hikoyaning butun syujetu kompozitsiyasi ana shu birgina so‘z asosiga quriladi. To‘g‘ri, hikoyada ruscha she’riy bandlar ham Marina yanga va Lena eslayolmayotgan “stupka”ga bog‘lanadi. Umuman, hikoyada qo‘llanilgan chet so‘z insoniy qadriyatlar va inson xotirasi bilan bog‘liq hayotiy jarayonlarni ifoda eta olganligi bilan ahamiyatli. “Stupka” – ona yurt to‘g‘risida, tug‘ilib ungan vatan haqida mungli, qayg‘uli, hasratli qo‘sish. Birgina so‘z Marina yangani bosib yo‘lini qayta xotirlashga, ko‘z oldiga keltirishga xizmat qiladi: Nikol qishlog‘i, Fedka abjirni tush ko‘rish epizodlari Marina yanganing ruhiy olamini qalbida kechayotgan yurt sog‘inchi tuyg‘usini anglab yetishga xizmat qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, Erkin A’zam nasrida varvarizmalar turlicha g‘oyaviy-badiiy maqsadlarni bajarishga yo‘naltirilgan. Varvarizmlar Safura timsolida hayotda o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘ygan ayol qiyofasini ko‘rsatsa, Marina yanga timsolida samimiyl insoniy tuyg‘ularni ko‘rsatishga ko‘mak bergen. Demak, qahramon qiyofasini badiiy talqin etishda leksik zahiralar, jumladan, varvarizmlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A’zam Erkin. Kechikayotgan odam: Qissalar. – T.: “Sharq”, 2002 y.
2. A’zam Erkin. Ertak bilan xayrlashuv: qissalar va hikoyalar . – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2007 y.
3. A’zam Erkin. Jannat o‘zi qaydadir:hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asar// Zabarjad kinoqissasi. – T.: “Sharq” nashriyot matbaa-aktsionerlik kompaniyasi. 2007 y.
4. A’zam Erkin. Bayramdan boshqa kunlar//T.: Vatanparvar. 1987 y.
5. A’zam Erkin. Guli-guli: qissalar, kinoqissalar, dramatik asar// Guli-guli qissasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2009 y.
1. Кобурова Н. Erkin A’zam nasrida xarakter va maishiy hayot tasviri. Т.: Общество и инновации, 2021. 2-4/S, 475-480
2. Sharipova N. Hayrat-ul abror strukturasida munojotning o’rni. The American Journal of Social Sciense and education innovations 5 (12), 73-76, 2023
3. 8.Tosheva Nilufar. Hozirgi o‘zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi. –Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024.
4. L Raupova, A Botirova, N Musulmanova, H Kadyrova, G Safarova International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (04)

5. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH BA Erkinovna// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 2 (16), 1-3
6. ГРАММАТИК ЛУФАТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН ШАКЛИГА СЎЗЛАРНИ ТУРКУМЛАР БЎЙИЧА ТАНЛАБ ОЛИШ ТАМОЙИЛИ: Ботирова Адиба Эркиновна, Навоий давлат педагогика институти доценти
7. АЭ Ботирова Образование и инновационные исследования международный научно-методический
8. THE PRINCIPLE OF SELECTING WORDS BY CATEGORY IN THE ELECTRONIC FORM OF MATHEMATICAL DICTIONARIES A Botirova
9. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (12), 1-11
- 10.Grammatik o‘quv lug‘atlari tuzish va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar A Botirova Til, ta’lim, tarjima 3 (5), 59-66

## **“NAVODIR USH-SHABOB” DEVONI G‘AZALLARIDGI AYRIM SO‘ZLARNING SEMATIK XUSUSIYATLARI TADQIQI**

**G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Navoiy innovatsiyalar universiteti**

**Annotatsiya:** Maqolada “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarda qo‘llanilgan so‘zlarning bir ma’nolilik va ko‘p ma’nolilik xususiyatlari yoritish hamda Navoiy lirk ijodi davomida juda ko‘p marotaba murojaat qilgan, shu bilan birga kam o‘rinda qo‘llagan so‘zlarning, semantik, leksik, etimologik jihatlarini tahlil qilingan. Turg‘un birikmalarning integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalari guruhlangan, devondagi izohtalab so‘zlarning bugungi tilshunosligimizdagi ma’nosи haqida ilmiy-amaliy tahlillar, fikr-mulohazalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** semantik ma’no, izohtalab so‘z, devon, g‘azal, sema, integral, differensial, teglash, tahlil.

## **“НАВАДИР УШ-ШАБАБ” ДЕВАНИ ГАЗЕЛИ - СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА НЕКОТОРЫХ ДРУГИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

**Аннотация:** В статье раскрываются особенности однозначных и многозначных слов, неоднократно употребляемых в газелях дивана «Наводир уш-шабаб», на протяжении его лирического творчества Навои, при этом рассматриваются семантические, лексические и проанализированы этимологические аспекты слов, использованных в статье. Сгруппированы интегральная (объединяющая) и дифференциальная (дифференцирующая)